

SCIENCE AND SCIENTIFIC RESEARCH IN THE MODERN WORLD

**BUGUNGI KUNDAGI INSON ORGANIZMIDA KO'PLAB
UCHROVCHI OSHQOZON ICHAK YARA KASALLIKLARINI BUGUNGI
KUNDAGI DOLZARBLIGI**

**Normal fiziologiya, patologik fiziologiya, farmokologiya va klinik
farmokologiya kafedrasi normal fiziologiya fani assistenti:**

Xonov Alaviddin Shoxo'jayevich

alaviddinx@gmail.com

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

1-son Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi:

Ulashova Dildora Azamat qizi

ilashovadildora59@gmail.com

Aminova Mohinur Normurod qizi

aminovamohinur133@gmail.com

Rasulova Nafisa Alisher qizi

nafisarasulova34@gmail.com

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

2-son Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi:

Ergasheva Shohsanam Samariddin qizi

Shoxsanamergasheva48@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda Oshqozon ichak kasalliklari juda ham avj olib rivojlanib ketmoqda bunga sabab har bir inson ovqatlanish tartibiga amal qilmasliklari hisoblanadi. Bu maqolamiz shundan iboratki insonlarga oshqozon yarasi kasalliklari va shunga o'xshagan kasalliklardan saqlanishi va shunday kasalliklarni oldini uchun malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Oshqozon – ichak, sabablari, turlari, belgilari, asoratlari,diagnostika, davolash

Asosiy qism: Oshqozon - ichak kasalliklari — oshqozon-ichak trakti, ya'ni

qizilo'ng'ach, oshqozon, ingichka ichak, yo'g'on ichak va to'g'ri ichak va ovqat hazm qilishning yordamchi organlari, jigar, o't pufagi va oshqozon osti bezi bilan aloqador bo'lgan kasallik turidir.

Oshqozon yarasi qanday paydo bo'ladi? Oshqozon shilliq qavatiga doimo ikki agressiv omil: xlorid kislota va fermentlar ta'sir qilib turadi. Bu moddalar oshqozonga tushgan ovqat mahsulotlarini hazm qilishda ishtirok etadi. Ushbu moddalar shilliq qavatni zararlamasligi uchun ximoya mexanizmi sifatida shilliq qavatda maxsus shilliq ajralib turadi, uning tarkibi bikarbonatlardan iborat.

Agressiv faktorlarning ortiqcha ajralib chiqishi hamda himoya funksiyasining pasayishi shilliq qavatning zaralanishiga olib keladi. Avvaliga eroziya, so'ngra yara paydo bo'ladi. Oshqozondagi kislotali shira o'n ikki barmoq ichakka o'tadi va yallig'lanish jarayoni boshlanadi (duodenit), sekin asta eroziya hamda yara ham rivojlanadi. Kasallik kelib chiqishida eng kata rol ni *Helicobacter pylori* egallaydi.

Yara kasalligining surunkali ko'rinishida kasallik belgilarining vaqti vaqti bilan huruj qilishi hamda remissiya davrlari farqlanadi. Huruj odatda jismoniy va ruhiy zo'riqishdan keyin, dieta buzilganda hamda zararli odatlar ta'siri natijasida yuzaga chiqadi. Kasallik ko'pincha erkaklarda uchraydi. Bundan tashqari yara kasalligi o'rta yoshli odamlarda uchrashi, kasallikning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Kasallikni keltirib chiqarishda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- H. pylori bakteriyasi ta'siri;
- oshqozonda mahalliy immunitetning pasayishi;
- irsiy moyillik;
- oshqozon sekretsiyasidagi disbalans – ya'ni kislotali fermentlar ko'p ajralishi va ximoya mexanizmlarining pasayishi;

Ayrim dori preparatlarini uzoq muddat qabul qilish. Ayniqsa nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalarni qabul qilish shilliq qavat devorini zararlantirishiga

olib keladi. Yuqoridagi sabablardan tashqari kasallikning rivojlanishida stress, jismoniy zo'riqish, spirtli ichimliklari ichish, tamaki mahsulotlarini chekish, ovqatlanish ratsionida doimiy achchiq, o'tkir, qovurilgan, dudlangan mahsulotlarning bo'lishi hamda ovqatlanish ratsionining buzilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasallikning klinik belgilari odatda tipik ko'rinishda paydo bo'ladi va kasallikni tashxislashda qiyinchilik tug'dirmaydi. Asosiy klinik belgilardan biri bu – og'riq hisoblanadi. Yara kasalliklarida og'riq odatda qorin och bo'lganda paydo bo'ladi yoki ovqatlangandan 2-3 soat o'tib seziladi.

Oshqozoning kardial qismida yara paydo bo'lsa og'riq quyosh tutamiga yaqin sohada, ovqatlangandan 20 daqiqa o'tib namoyon bo'ladi. Og'riq yuqoriga ya'ni ko'krak qafasiga ham tarqalishi mumkin. Bu esa ko'pincha oshqozon yara kasalligi va yurak hurujlarida paydo bo'luvchi og'riqlar bilan diagnostika qilishda qiyinchilik tug'diradi. Yaraning kardial qismida joyashuvida og'riq jismoniy zo'riqishdan keyin paydo bo'lmaydi.

Pilorik qismda paydo bo'lgan yara belgisi uzoq muddat davom etuvchi og'riqdir. Ba'zida og'riq davomiyligi 40 daqiqadan 1 soatgacha cho'zilishi mumkin. Og'riq asosan ovqatlanganda so'ng 40-60 daqiqa o'tib boshlanadi. Odatda tunda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari bemorlarda dispeptik sindromlar – ko'ngil aynishi, qayt qilish, holsizlik, qorin dam bo'lishi ham kuzatilishi mumkin. Ushbu sohada paydo bo'lgan yara 5-10 % holatlarda salbiy asoratlarga olib keladi (penetratsiya, qon ketishi, teshilish, stenoz).

10-15 % holatlarda yara oshqozonning antral qismida uchraydi. Kuchli og'riq odatda tunda, chap qovurg'a osti sohasida namoyon bo'ladi. Og'riq oshqozon bo'shlig'idagi ovqat massasi hazm bo'lib parchalangunga qadar davomiy bo'ladi. Yara oshqozoning katta egirligida rivojlansa jiddiy asoratlarga olib kelishi

mumkin, bunday holat ko'pincha qari yoshdagi insonlarda uchraydi va bunday yaralarni tashhishlash ancha qiyinchilik tug'diradi.

O'n ikki barmoq ichak yarasi odatda 40 yoshgacha bo'lgan insonlarda uchraydi. Kasallik kelib chiqishida irsiy moyillikning o'rni katta. Kasallikda og'riq sindromi ovqatlangandan so'ng 1,5-2 soat o'tgach namoyon bo'ladi, dispeptik belgilar kam kuzatilsada, bemorlar ich qotishiga shikoyat qiladilar.

Yara kasalligi o'z vaqtida davolanmasa jiddiy asoratlarga olib keladi. Ular 5 ta:

- Yara perforatsiyasi – oshqozon devorining barcha qavatidan teshilishi;
- Qon ketishi;
- Pilorik qism stenozisi ya'ni torayishi va shu sohada ovqat massasining tiqilishi;
- Penetratsiya – yaraning qo'shni a'zo bilan qo'shib ketishi;
- Maliginizatsiya – yomon sifatli o'smaning paydo bo'lishi.

Kasallikka aniq va yakuniy tashhis qo'yish uchun ezofagogastroduodenoskopiya (FGDS) – xalq tilida gastroskopiya, zond “yutish” tekshiruvidan o'tish kerak bo'ladi.

Tekshiruv ingichka trubka yordamida og'izdan kirilib oshqozon va o'n ikki barmoq ichak bo'shlig'iga tushiladi. Trubkaning uchida maxsus kamera joylashgan bo'lib, u yordamida shilliq qavatlar holati, yaraning o'lchami, uning asoratlangan yoki asoratlanmaganligi, zaruriy holatlarda yaradan biopsiya olinishi, *H. pylori* ni aniqlash uchun material olish ham mumkin. Agar bemor tekshiruv vaqtida kuchli diskomort sezsa medikomentoz uyqu yordamida ham endoskopiya amaliyotini olib borish mumkin.

Kasallikni oldini olish

Avvalo kasallikni qo'zg'atadigan xavf omillarini bartaraf etish kerak.

Sog'lom ovqatlanish qoidalariga rioya qilish lozim: ozroq ovqatlaning, lekin yog'li va achchiq ovqatlarni ratsiondan chiqarib tashlang. Sog'lom turmush tarzini olib boring — chekishni to'xtating, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishni cheklang, ko'proq mashq qiling, yetarlicha uxlang va kamroq asabiylashmang. Eng muhimi — oshqozon haqida shikoyatlar bo'lsa, shifokor bilan bog'lanishdan tortinmang. Vaqtida tashxis qo'yish va o'z vaqtida davolash jiddiy asoratlarni oldini olishga va salomatlikni saqlashga yordam beradi.

Bemorlarga dieta qilish, zararli odatlardan vos kechish, stress holatlariga tushmaslik va qat'iy kun tartibiga rioya etish tavsiya qilinadi. Davo muolajalari odatda 14 kun davomida olib boriladi. Har bir bemor uchun alohida davo buyuriladi, bunda bemorning holati, yoshi, kasbi va yondosh kasalliklari inobatga olinadi. Yara kasalligi jiddiy kasallik bo'lib, o'z vaqtida davolanmaslik kasallikning asoratlanishiga bu esa hatto o'lim holati qayd etilishigacha olib borishi mumkin.

Medikomentoz davu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Antibacterial preparatlar – organizmdagi *H. pylori* ni yo'qotish uchun;
- Antiasid preparatlar – oshqozon shirasi sekretsiasini kamaytirish maqsadida;
- Proton pompa ingibitorlari – xlorid kislotaning sekretsiasiga ta'sir qiladi va uning “agressivlik” xususiyatini pasaytiradi;
- H₂-gistaminblokatorlari – oshqozon shirasi “agressivligi”ni pasaytiradi;
- Spazmolitiklar – og'riq vaqtida simptomatik davu sifatida buyuriladi.
- Buyurilgan dori preparatlarini o'z vaqtida va buyurilgan muddat davomida qabul qilish zarur. Kasallik belgilarining kamayishi preparatlarni qabul qilishni to'xtatish kerakligini bildirmaydi.

Xulosa: har bir inson endi shaxiy gigiyena, ovqatlanish tartibiga, ichish, chekish kabi zararli odatlarni tashlashi lozim tutiladi. Ichish oqibatida inson organizmida juda nohush xolatlar kelib chiqadi masalan oshqozonida yarasi bor odam ichadigan bo'lsa spirt oshqozonga Tushar ekan oshqozon va ichaklar devorini yumshatadi va qonni suyultiradi bu degan yara yana ochilib ketadi degani.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oshqozon-ichak trakti kasalliklari sindromi. Oshqozon shilliq pardasining o'tkir yalliqlanishi simptomlari (denemetr.com)
2. Oshqozon yarasi haqida hamma bilishi kerak bo'lgan 5 ta fakt — «Daryo»
3. Oshqozon yarasi: sabablari, belgilari va davolash usullari - Rustamovs.uz
4. Oshqozon-ichak kasalligi - Vikipediya (wikipedia.org)

